

OILA-TURMUSH SOHASIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNI BARVAQT ANIQLASH VA OLDINI OLISHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Atajanov O'tkir Mamatsalayeovich

Mustaqil tadqiqotchi

Musayev Dilshod Xamidovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim 3-o'quv kursi 309-gurux
kursanti*

Annotatsiya: *Maqola profilaktika inspektorlarining oila muhitida sodir bo'ladigan jinoyatlarning oldini olish faoliyatini takomillashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda oilaviy jinoyatchilik profilaktikasining nazariy asoslari, huquqiy bazasi va amaliy mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan profilaktika inspektorlarining vakolatlari, ish uslublari va oilaviy zo'ravonlik, voyaga etmaganlar huquqbuzarliklari kabi ijtimoiy xavfli hodisalarning oldini olishdagi roli tahlil qilingan. Maqolada oila institutining mustahkamlanishi va ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishida preventiv choralarning ahamiyati asoslantirilgan. Tadqiqot jarayonida profilaktika xizmatlarining faoliyat samaradorligi, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari o'rganilgan. Ishda statistik ma'lumotlar tahlili, xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil va amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari profilaktika inspektorlarining malaka oshirishi, ularning ish uslublarini zamonaviylashtirish va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Olingan xulosalar jinoyatlar profilaktikasi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish va oila himoyasi dasturlarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *profilaktika inspektorlari, oilaviy jinoyatchilik, jinoyatlar profilaktikasi, preventiv choralari, oila zo'ravonligi, voyaga etmaganlar huquqbuzarliklari, ijtimoiy profilaktika, oila instituti, ijtimoiy barqarorlik, huquqni muhofaza qilish organlari, ijtimoiy himoya, kriminogen omillar, deviant xulq-atvor, idoralararo hamkorlik, oila farovonligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ijtimoiy xavfsizlik*

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF OPTIMIZING THE ACTIVITIES OF PREVENTION INSPECTORS IN EARLY DETECTION AND PREVENTION OF CRIMES COMMITTED IN THE FAMILY AND DOMESTIC SPHERE

Annotation: *The article is devoted to the scientific analysis of ways to improve the activities of prevention inspectors in preventing crimes committed in the family environment. The study examines the theoretical foundations, legal framework, and practical mechanisms of family crime prevention. The author analyzes the powers, working methods of prevention inspectors, and their role in preventing socially dangerous phenomena such as domestic violence and juvenile delinquency. The article substantiates*

the importance of preventive measures in strengthening the family institution and ensuring social stability. During the research process, the effectiveness of prevention services activities, existing problems, and ways to solve them were studied. The work provides statistical data analysis, comparative analysis with foreign experience, and practical recommendations. The research results demonstrate the need for professional development of prevention inspectors, modernization of their working methods, and strengthening cooperation with social services. The obtained conclusions can be applied in improving legislation in the field of crime prevention and developing family protection programs.

Keywords: *prevention inspectors, family crime, crime prevention, preventive measures, domestic violence, juvenile delinquency, social prevention, family institution, social stability, law enforcement agencies, social protection, criminogenic factors, deviant behavior, inter-agency cooperation, family welfare, crime prevention, social security.*

Mamlakatimizda oilada sodir etiladigan jinoyatlarning barvaqt oldini olish profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, xususan aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lmagan, «ommaviy madaniyat» ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ularning ota-onalari mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasi»⁴⁶ kabi dolzarb vazifalar nazarda tutilgan. Bu esa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ilg'or ish usullarini joriy etish, jinoyatlarni barvaqt aniqlash bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik tashkil etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda hududlarda sodir etilayotgan hjinoyatlarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatlarning sodir etilishi sabablari, shaxsda g'ayriijtimoiy xulq-atvor va xususiyatlarning shakllanishiga hamda turli ko'rinishdagi jinoyatlar sodir etilishiga, qonunga yoki qonun ijrosiga putur yetkazadigan, unga rioya qilishga to'sqinlik qiladigan omillar eng avvalo oiladagi muhit ta'sirida yuzaga keladi. Zero, har qanday jinoyatlarning kelib chiqishida oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, har qanday jinoyatchilik va salbiy illatlarning tomiri oilada shakllanadi. Oila shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ma'naviy va axloqiy tarbiyalash, shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'zini tutish kabi insoniy xususiyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda shaxs hayoti va sog'lig'iga

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., №6., 70-modd.

qarshi jinoyatlarning 40 %i, har to'rtta qotillikning bittasi, qasddan badanga shikast yetkazishlarning har beshtadan bittasi, haqorat qilish va tuhmatning sakkiztadan bittasi aynan oila-turmush sohasida sodir etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev oila-turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlar yuzasidan o'zining fikr va mulohalarini bildirib, shunday degan edi: «Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda»⁴⁷. Darhaqiqat, oila turmush doirasidagi nizolar tufayli shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatiga qaratilgan turli ko'rinishdagi jinoiy tajovuzlarning sodir etilayotganligi achinarli holdir.

Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, ularga nisbatan jinoyat va zo'ravonlik sodir etilishini oldini olish, uni sodir etishga moyil bo'lgan g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq samarali profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida «insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi»⁴⁸ e'tirof etiladi.

Ta'kidlash kerakki, oila-turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning bprvaqt oldini oldish profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun eng avvalo, ushbu turdagi jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganish va tahlil qilish kelgusida ularning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik borasida tizimli kompleks profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada ma'naviy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri oiladagi tarbiya hisoblanadi. Zero, «insonning davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushushi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib, e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq».⁴⁹

Tabiiyki, barcha oilalarga sirtidan qaraganda tinch, hamma narsa maromida va binoyidek bo'lib tuyuladi. Biroq, shunday oilalar ham mavjudki, ularda muntazam ravishda nizoli holatlar bo'lib turadi. Eng achinarlisi, nizoli holatlar natijasida oilalarning barbod bo'lishi ayniqsa, shaxsning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan jinoyatlarning sodir etilmoqda. Shu boisdan, ushbu turdagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfi, uning oqibati hamda oilalarda sodir etilayotgan jinoyatlar haqida tushintirish targ'ibot ishlarini olib borish amaliyotini kuchaytirish lozim. Tadqiq etilayotgan jinoyatlarning oldini olish profilaktikasida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish orqali jamiyat hayotida murakkab bo'lgan oila hayoti va undagi mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga xizmat qilishi mumkin. Misol uchun, to'y marosimlarini o'tkazishda ortiqcha dabdababozlikka yo'l qo'ymaslik, farzand tarbiyasiga ma'suliyat bilan qarash,

⁴⁷ Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik // Xalq so'zi. –T., 2017-yil. 16-iyun.

⁴⁸ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr) / Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi // <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.

⁴⁹ Fitrat A. Tanlangan asarlar. Oila yoki boshqarish tartiblari. –T., 2006. –B. 262.

ota-onaga hurmat bilan munosabatda bo'lish yuzasidan aholiga tushuntirishlar berish va boshq.

Profilaktika inspektori maishiy-turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning barvaqt oldini olish profilaktikasini amalga oshirishda quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

a) O'ziga biriktirilgan ma'muriy hududdagi har bir xonadon haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lish: aholi hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'rganishga; nosog'lom turmush tarzi kechirayotgan fuqarolarni aniqlashga; oila turmush doirasida jinoyatlar sodir etayotgan shaxslarni aniqlab tegish choralari ko'rishga; jinoyatlar sodir etishga imkon berayotgan sabab va sharoitlarni aniqlab, ularni bartaraf etishga xizmat qiladi.

b) Profilaktik suhbat: oilada oila a'zolari ya'ni, er-xotin, aka-uka, opa-singil, qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar o'rtasida jinoyatlar sodir etishga moyil shaxslarni aniqlab ularga huquqiy va psixologik ta'sir ko'rsatishga; farzandining tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ularga shafqatsiz munosabatda bo'layotgan ota-onalarni aniqlash ularga nisbatan ta'sirchan choralarni qo'llashga; fuqarolarga oiladagi nizolarning shaxs hayoti va taqdiriga salbiy ta'siri va ularning oqibatlarini tushuntirishda muhim profilaktika turi hisoblanib, ijobiy natijalarni kelib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

v) Huquqiy targ'ibot: yangi qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga; fuqarolarni hushyorlik va ogohlikka; qonunchilik mazmun va mohiyatidan xabardor bo'lishga; fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy bilimini oshirishga; shaxsni jinoyat sodir etishdan tiyilishiga; fuqarolarni qonunchilikka rioya etishga xizmat qiladi.

g) Yarashtirish komissiyasining faoliyatini samarali tashkil etish: notinch oilalarni yarashtirish; oiladagi nizolar tufayli buzilgan munosabatlarni tiklash choralari ko'rishga; oila-turmush doirasida jinoyat sodir etayotgan shaxslarga nisbatan tegishli chora ko'rishga; nizoli oilalardagi muammolarni hal etishga; farzand tarbiyasiga befarq ota-onalarni o'z vaqtida aniqlab, ularga nisbatan tegishli chora ko'rishga; to'y-maraka va boshqa tadbirlarni ortiqcha dabdabasiz o'tkazish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, halq bilan tizimli manzilli muloqotni, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikni o'rnatish, aholining eng muhim muammolarini hal etishga har tomonlama ko'maklashish⁵⁰ har bir jinoyatlarni oldini olish profilaktikasini amalga oshiruvchi sub'ektlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududlarda oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash, o'rganish, tahlil qilish hamda uning profilaktikasini tashkil etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi oilada sodir

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarifaoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2017-yil 12-apreldagi PQ-2883-sonli Qarori. /O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y. 15-son, 247-moddasi.

etiladigan jinoyatchilikni oldini olish, ularni barvaqt profilaktika qilish hamda mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligini oshirishdan iborat.

Profilaktika (katta) inspektorlari mazkur yo'nalishdagi faoliyatni samarali tashkil qilish bo'yicha ma'muriy hududdagi har bir oilani o'rganib chiqishi hamda notinch bo'lgan oilalarni aniqlab, ular bilan profilaktik ishlarni olib borish va ularga ijtimoiy jihatdan yordam ko'rsatishi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda ularning maishiy va boshqa muammoli masalalarini hal etishga ko'maklashishi lozim⁵¹. Mazkur vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, ushbu turdagi jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelgan sabab va sharoitlar ham tahlil qilinadi.

Oilada sodir etiladigan jinoyatlarning barvaqt oldini olish profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning oila-turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyati oila-turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning umumiy choralariga kiradi.

Profilaktika xizmatlari tomonidan oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning umumiy tartibdagi profilaktikasi faoliyatini tashkil etishning asosiy maqsadi bo'lib, ma'muriy hududlarda yashovchi oilalar haqida tezkor vaziyatdan xabardor bo'lish, sodir etilishi muvqin bo'lgan nizolarni barvaqt profilaktikasini ta'minlash, notinch oilalardagi ijtimoiy ruhiy-muhitni sog'lomlashtirish hamda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Dastlabki profilaktika shaxsda jamiyatga zid qarashlar shakllanishi, uning axloq va huquq normalariga zid qilmish sodir etishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonidir⁵².

Profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan ushbu yo'nalishda profilaktika faoliyatini tashkil etilishi birinchidan, jamiyatga zid turmush tarzi kechiruvchi shaxslar hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlashga, ikkinchidan, g'ayriijtimoiy hodisa va jarayonlar, voqea va hodisalardan xabardor bo'lishga, uchinchidan, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, to'rtinchidan, ushbu turdagi jinoyatlarni bartaraf etish, kuchsizlantirish va oldini olishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy vositalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Ba'zi yuridik adabiyotlarda mazkur faoliyat «oldini olish», «yo'l qo'ymaslik», «profilaktika qilish» kabi atamalardan ham foydalanilgan⁵³. Kriminolog olimlar Yu.M.Antonyan va G.A.Avanesovning fikricha, «jinoyatchilikka qarshi kurash» yuqorida keltirilgan boshqa atamalarga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u davlat, jamoatchilik tomonidan jamiyat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilishga qaratilgan barcha chora-tadbirlarni qamrab oladi.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-sonli Qarori. /O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 17-son, 288-modda.

⁵² Ismailov I. va boshqalar. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarligining oldini olish: O'quv-amaliy qo'llanma. / Mas'ul muharrir I. Ismailov. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, 2011. –B. 179.

⁵³ Dolgova A.I. Kriminologiya. –M.: Norma, 2006. –S. 284.

Huquqshunos M.Q.O'razalievning fikricha, jinoyatlarni profilaktika qilish jinoyatchilikning oldini olish faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanib, u jinoyatchilik sabablarini va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni, ularning ayrim guruhlar va jinoyatchilik turlarini izchil aniqlash va bartaraf etilishini nazarda tutadi⁵⁴. Shunday qilib, ushbu faoliyatni tashkil etishdan maqsad, eng avvalo, jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilish, ularni zararsizlantirish, jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lgan shaxslarga ta'sir ko'rsatish hamda fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan turli tajovuzlarni oldini olishdan iboratdir.

Jinoyatlarning barvaqt oldini olish profilaktikasi – huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, jinoyatlarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan jinoyatlarning barvaqt oldini olish profilaktikasi umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi⁵⁵. Yuqoridagi profilaktik chora-tadbirlarni to'g'ri tashkil etilishi jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatlarning oldini olish shunisi bilan afzalki, bu faoliyatga jinoyat sodir etgan shaxsning jazolanishi muqarrarligini ta'minlash uchun sarflanadigan ancha kam xarajat qilinishi bilan bir vaqtda, insonni, ayniqsa yoshlarni jamiyatda o'z o'rnini topishga, hayotda atrofidagi yaqin kishilari, boshqa insonlar va jamiyat uchun foydali bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishga undaydi hamda uni amalga oshirishda ko'maklashadi⁵⁶.

Jinoyatlarni barvaqt oldini olish to'g'ri tashkil etilsa, mamlakatimizda jinoyatchilikning ahvolini tubdan o'zgartira olmasa ham, unga qarshi amaliy kurash muayyan jinoyatlar rivojlanishidagi salbiy omillarga amalda qarshilik ko'rsatish mumkin⁵⁷.

Ayrim tadqiqotlarda ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida «Siz xizmat qilayotgan hududda oiladagi jinoyatchilikni oldini olish borasida fuqarolardan qanday xabar va ma'lumotlar kelib tushmoqda?» deb so'ralganida ularning 54,3% oilada doimiy nizo va janjal bo'lib turuvchi oilalar haqida, 15,1% hayot tarzi shubhali shaxslar haqida, 10,7% spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar haqida, 13,5% farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotgan ota-onalar haqida, 6,4% qo'ni-qo'shnilar tinchligini buzayotgan oilalar haqidagi ma'lumotlar jamoatchlik vakillaridan o'z vaqtida kelib tushishini ma'lum qilishgan⁵⁸.

Oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarni barvaqt oldini olishning maxsus profilaktikasini amalga oshirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlar yoki ushbu turdagi jinoyatlikni sodir etuvchi shaxslar toifalarining ko'payishi;

⁵⁴O'razaliev M.Q. Oilada voyaga yetmaganlarga qarshi sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning oldini olish: yurid. fan. nomz. diss-ya. –T., 2008. –B. 90.

⁵⁵O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi 2014 yil 14 maydagi qonuni // URL: <http://www.lex.uz>.

⁵⁶Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: Yurid. fan. dok-ri. diss... –T., 2006. –B. 199.

⁵⁷Axmedova G.O'. Uyushgan guruhlar kichik tadbirkorlik sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish: yurid. fan. nomz. diss-ya. –T., 2006. –B. 101.

⁵⁸Murodov A. Sh.Oiladagi jinoiy zo'rvonlikni oldini olish: O'quv-amaliy qo'llanma / Mas'ul muharrir prof. I.Ismailov. – T. 2014. – B. 57.

- jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini va boshqa qonuniy manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi.

Jinoyatlarni barvaqt oldini olish maxsus profilaktikasini ishlab chiqish va amalga oshirishda jinoyatlarni oldini olish profilaktikasi sub'ektlari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, ushbu faoliyat ustidan doimiy nazorat, tahlil ishi hamda rejalashtirishning o'z vaqtida amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega⁵⁹.

Jinoyatlarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish va zararsizlantirishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-marifiy va boshqa profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim⁶⁰.

Bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyotida, profilaktikaning ana shunday turidan kedib chiqib, oila turmush sohasida jinoyatlar sodir etuvchi shaxslar ko'payganda ma'muriy hududlarda «Xonadon», «Turmush», «G'amxo'rlik» kabi maxsus profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, jinoyatlarni barvaqt oldini olishning maxsus profilaktikasi doirasida ma'muriy hududda yashovchi spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni o'z vaqtida aniqlab, ularni majburiy davolashga yuborish muhim ahamiyatga ega bo'lib, spirtli ichimlik ta'sirida kelib chiqadigan jinoyatlarni barvaqt oldini olish profilaktikasining eng samarali profilaktikasi hisoblanadi.

Jinoyatlarning barvaqt oldini olish profilaktikasini amalga oshirishda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilgandan so'ng, sud davolash bilan birga yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olishni ham ko'zlab qo'yadi⁶¹ deydi. Profilaktikaning ushbu turi oila turmush munosabatlari doirasida jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barvaqt profilaktikani tashkil etish kriminogen oilalar haqidagi axborotlarni o'z vaqtida olinishini va kerakli profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi⁶².

Tadqiq etilayotgan jinoyatlarni barvaqt oldini olishning maxsus profilaktikasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligini oshirish lozim:

1) ilgari sudlangan shaxslarning oilaviy ahvoli hamda turmush tarzini o'z vaqtida o'rganish va kerakli profilaktikaning turini qo'llash;

2) oila turmush doirasida muntazam ravishda alkogol yoki giyohvandlik vositalarni iste'mol qiluvchi shaxslarni aniqlash va ularni o'rganib majburiy davolash muassalariga yuborish;

3) oila turmush doirasida muntazam ravishda jinoyatlar sodir etuvchi va unga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va tegishli choralarga ko'rish;

⁵⁹Xo'jaqulov S.B. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati // O'quv qo'llanma. – T., 2017. – B. 45.

⁶⁰Muxtorov J.S. Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatlari tomonidan jinoyatlarning oldini olishni ta'minlash: afoREF. diss. yurid. fan. nom. –T., 2009. –B. 16.

⁶¹Fayzullaeva T.X. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlash muammolari: yurid. fan. nomz. diss-ya. –T., 2009. –B.42. (178)

⁶²Zokirova A.G. Rashk motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammolari. – T., 2004. –B. 169.

4) tarbiyasi og'ir, jinoyatlar sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va jinoyatlarning barvaqt oldini olish profilaktikasini tashkil etish.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oila turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlarning maxsus profilaktikasiga narkolog va psixologlarni jalb etish zarur. Chunki, narkologlar hisobida turuvchi shaxslarning oilasida ko'pincha nizo yoki kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Shu boisdan, oiladagi bunday vaziyatlar yuzasidan ushbu toifadagi shaxslar haqida oila a'zolari tomonidan ichki ishlar organlariga yordam so'rab murojaat etishi sababli ularning ko'pchiligi majburiy davolash muassasalariga yuborilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda sog'liqni saqlash idoralari, jamoat tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati idoralari o'zaro hamkorlikdagi faoliyati tashkil etilsa, ko'zlangan natijalarga erishish mumkin⁶³.

Oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlari – jinoyatlarning barvaqt oldini olish profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo'lgan, oilada zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatdir.

Oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlari muayyan shaxsning xislatlari, uning ijtimoiy muhitiga xos jihatlar, ijtimoiy-maishiy shart-sharoiti va turmush tarzi, g'ayriijtimoiy xulq-atvori, maishiy zo'ravonlik sodir etishga moyilligi, shuningdek u oila-turmush doirasida sodir etgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfilik darajasini ifodalovchi boshqa omillar bilan belgilanadi.

Shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvori, uning jinoyat sodir etishga moyilligi yoxud u jinoyat sodir etganligidan dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi oilada sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlarini qo'llash uchun asos bo'ladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxs ijtimoiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari, turmush tarzi, g'ayriijtimoiy xulq-atvori, jinoyat sodir etishga moyilligi hamda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi.

Jinoyatlarni yakka tartibda oldini olish deb, muayyan jinoyat sabablarini va uni sodir qilishga ko'maklashgan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf qilish, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash va ular bilan zarur tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish bo'yicha amalga oshiriladigan maxsus kriminologik darajadagi jinoyatlarni oldini olishdan iborat faoliyat deb qayd etib, ushbu jarayonni "ogohlantirish", "bartaraf qilish", "to'xtatish" (to'sqinlik qilish) kabi bosqichlarda amalga oshirilishini tushuniladi⁶⁴.

Yakka tartibdagi profilaktika jinoyatlarni oldini olishning ijtimoiy darajasiga, miqyosiga (hajmiga), hududiy miqyosiga, ta'sir qilish ob'ektiga, mazmuniga qarab

⁶³Murodov A. Sh.Oiladagi jinoiy zo'ravonlikni oldini olish: O'quv-amaliy qo'llanma / Mas'ul muharrir prof. I.Ismailov. – T. 2014. – B. 57.

⁶⁴ Zaripov Z., Ismailov I. Kirminologiya. Darslik.–T., 1996. –B. 178-179.

tasniflab, jinoyatchilikning miqyosiga qarab o'z navbatida umumiy, maxsus va individual choralarga bo'linadi⁶⁵.

Jinoyatlarning oldini olishning yakka tartibdagi profilaktikasi muhim ahamiyat kasb etib, odamning yashashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shaxsning muayyan jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xususiyatlarni o'rganish bilan jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratiladi⁶⁶.

Yakka tartibdagi profilaktika shaxsda ijtimoiy salbiy qarashlar va salbiy xulqning shakllanishini bartaraf qilishga, agar shunday xulq shakllanib qolgan bo'lsa undagi ijtimoiy xususiyatlarni o'zgartirish va shu yo'l bilan jinoyat sodir etishi mumkinligini oldini olish, uni to'xtatishga qaratilgan choralar kiradi. Shunday qilib, muayyan shaxsga qaratilgan yakka tartibda ta'sir qilish keng ma'noda ma'lum bir faoliyatni tashkil etadi. Ushbu faoliyat maxsus sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bizningcha, ichki ishlar organlarining oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasi deganda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, xulq-atvorini o'rganish, jinoyat sodir etishiga olib kelgan sabab va sharoitlarni o'rganish orqali ularga ta'sir etish choralari qo'llashdan iborat faoliyati, deb ta'rif berish mumkin.

Profilaktika inspektorlarining yakka tartibdagi profilaktika faoliyati mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) o'zining qarashlari, xulq-atvori bilan jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va ular bilan ishlarni tashkil etish;
- b) shunday shaxslarni aniqlash va ularga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalarni aniqlash;
- v) ularga zararli ta'sir etuvchi manbalarni kuchsizlantirish va bartaraf etish;
- g) jinoyat sodir etgan hamda sodir etishga moyil shaxslarga tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish.

Profilaktika inspektori o'ziga nisbatan yakka tartibda profilaktika ishi olib borilayotgan shaxslarning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari, ma'naviy-ruhiy va biofizilogik xususiyatlarini o'rganishi natijalari asosida yakka tartibdagi individual profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishi lozim. Chunki, oila turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni, shu jumladan, jinoyatlarni aniqlash, o'rganish, tahlil va muhokama qilish, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchini yarashtirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi⁶⁷.

Tadqiqotimiz davomida o'rganilganida, fuqarolar profilaktika inspektorlariga oiladagi nizolarni hal qilish uchun asosan quyidagi mazmundagi arizalar bilan murojaat etishgan:

1. Oilada qaynona-kelin o'rtasida sodir etilgan nizoli vaziyatlar;
2. Erining spirtli ichimlikka ruju qo'yganligi;
3. Erining kaltaklashi va bolalariga shafqatsiz munosabatda bo'layotganligi;

⁶⁵Usmonaliev M., Karaketov Y. Kriminologiya. Darslik. –T., 2001. –B., 259.

⁶⁶O'razaliev M.K. Oilada voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarni oldini olish: dissertatsiya. –T., 2011. – B. 92.

⁶⁷Ismailov I. Uyushgan jinoiy guruhlar shakllanishi va faoliyatining oldini olishda hamkorlikni tashkil etish // O'quv qo'llanma. –T., 2007. –B. 48.

4. Qarindosh urug'larning oilaga aralashuvi (ko'pincha yosh kelinlarga onasining ta'siri) oqibatida kelib chiqayotgan nizolar xususida;
5. Mol-mulkni bo'lish yoki meros talashish masalasida;
6. Erining xiyonatkorligi yoki xotinini xiyonatda ayblayotganligi;
7. Farzandining tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar to'g'risida;
8. Oiladagi ma'naviy-muhitning nosog'lomligi, shaxsning salbiy xulq-atvori va ularning boshqa oila a'zolariga ta'siri haqida.

Profilaktika inspektorlari ushbu nizoli xarakterdagi ariza va shikoyatlarni qonuniy hal qilishlari bilan birga birinchidan, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga, ikkinchidan, oila turmush doirasida sodir etilishi mumkin bo'lgan qilmishlarni oldini olishga, uchunchidan, nizolar oqibatida jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxslarning o'rtasidagi munosabatlarning buzulishini oldini olishga erishish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, oila turmush doirasidagi nizolarni ko'rib chiqishda profilaktika inspektorlaridan yuksak kasbiy mahorat va psixologik bilimlar talab etiladi. Ayniqsa, bunday jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish uchun mutaxassis maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim⁶⁸. Chunki, har bir holat zamirida oila, inson taqdiri, qarindosh-urug'chilik, er-xotinning o'zaro munosabatlari yotadi. Agar bunday vaziyatlarda oiladagi nizolarni bartaraf etish, er yoki xotinni murosaga keltirishga yuzaki yondoshilsa oilaning barbod bo'lishi tabiiy hol. Shu bois, oilada sodir etilgan jinoyatlarni sinchkovlik bilan muhokama qilish, uning sabablarini atroflicha o'rganib chiqish, ularni murosaga keltirish borasida xolisona qaror qabul qilish masalasi profilaktika inspektorlariga katta ma'suliyat yuklaydi.

Yakka tartibdagi profilaktikaning ahamiyati shundaki, oilada nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi shaxslarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali ularni axloqan tuzatish, nazorat qilish ularda ijtimoiy hayotga mos xulq-atvor va turmush-tarzini ijobiy tomonga shakllantirishdan iborat.

Profilaktika inspektorlari tomonidan oiladasodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda samarali natija beruvchi profilaktikaning yana bir turi profilaktika suhbatini tashkil etishdir.

Profilaktika suhbatini muayyan shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishonitirishdan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda jinoyat sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirishdan iborat.

Profilaktika suhbatini davomida shaxsga xos xususiyatlar, uning turmush tarzi, u yashab turgan ijtimoiy-maishiy sharoit, shuningdek uning g'ayriijtimoiy xulq-atvorining yoki u sodir etgan oiladasodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlari aniqlanadi.

⁶⁸Пулатов Ю.С., Асямов С.В. Психологический тренинг сотрудников органов внутренних дел. –Т.: 2002. –С. 18.

Agarda, ilgari o'tkazilgan profilaktika suhbatlari ijobiy natija bermagan va shaxs g'ayriijtimoiy xulq-atvorini tuzatmagan yoki oiladagi jinoyat sodir etishga moyillikni ko'rsatishda davom etgan hollarda unga nisbatan rasmiy ogohlantirish qo'llaniladi.

Rasmiy ogohlantirish shaxsiga uning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini davom ettirishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risida yozma ravishda ma'lum qilishdan, shuningdek maishiy zo'ravonlik sodir etishga moyil shaxsni jinoyatlar sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirishdan iborat.

Profilaktika inspektorlari oila turmush doirasidasodir etiladigan jinoyatlarning barvaqt oldini olishning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishda ushbu turdagi jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashda quyidagi ma'lumotlardan foydalanishlari samarali natijalarni berishi mumkin:

- fuqarolar yig'inlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari ma'lumotlari;
- ichki ishlar organlari tomonidan tashkil etilgan profilaktik tadbirlarda aniqlangan ma'lumotlardan;
- sog'liqni saqlash muassasalaridan kelib tushgan ma'lumotlar;
- voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarida aniqlangan ma'lumotlar;
- ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritishda aniqlangan ma'lumotlar;
- ichki ishlar organlarining MHTMga kelgan va ichki ishlar organlarining soxaviy xizmatlari ma'lumotlaridan;
- qo'shnilar, qarindosh-urug'lar va jamoatchilikdan olingan ma'lumotlar.

Oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasida shaxsning ma'muriy yoki jinoiy qilmishlardan jabrlanishi yoxud ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni kompleks tarzda o'rganishga hamda jinoyatlardan shaxsning jabrlanish ehtimolini maksimal darajada kamaytirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Oila turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatchilikka duchor bo'ladigan shaxslarga oilada doimiy ravishda birgalikda yashovchi oila a'zolari va boshqa shaxslar kiradi.

Oila a'zolari o'rtasida vujudga keladigan oilaviy-maishiy munosabatlar doirasida jismoniy, ruhiy, jinsiy zo'ravonlik sodir etib, shaxsning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilgan taqdirda, u jinoiy zo'ravonlikdan jabrlangan deb topiladi.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi paytlarda ichki ishlar organlari tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning viktimologik tahliliga tayangan holda joylarda viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Mazkur profilaktik chora-tadbirlarda viktimogen omillarni aniqlash, bartaraf etish, zararsizlantirish va ularning ta'sirini kamaytirish, viktimlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash, ulardagi viktimlik darajasini pasaytirish va ularning jinoiy tajovuzlar qurboni bo'lish xavfini kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur viktimologik profilaktikada jinoyat sodir etishga moyil shaxs emas, balki undan jabrlanishi mumkin bo'lgan toifadagi shaxslarga ulardagi bunday moyillikni shakllantiruvchi omillarni bartaraf etishga qaratiladi.

Ta'kidlash joizki, viktimologiyada umumijtimoiy oldini olish jamiyatning barcha bo'g'inlari (oilalar, ta'lim, tibbiyot muassasalari, o'zini-o'zi boshqarish organlari)ning faol ishtiroki orqali amalga oshirilsa, maxsus oldini olishda bevosita ichki ishlar organlari, prokuratura, adliya, sud organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, birinchidan mazkur hududlarda aniqlangan nizoli oilalardagi muhitni yaxshilash borasida profilaktik ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan, ikkinchidan profilaktika inspektorlari, mahalla fuqarolar yig'ini, xotin qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis, mahalla posboni notinch oilalar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishmagan, uchinchidan jinoyat sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlar yo'lga qo'yilmagan, to'rtinchidan spirtli ichimlikka va giyohvandlikka ruju qo'ygan shaxslarni o'z vaqtida aniqlab, ularni majburiy davolash muassasalariga yuborish choralari ko'rilmagan.

Tadqiq etilayotgan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligini oshirish quyidagi yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- 1) ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan notinch oilalarni o'z vaqtida aniqlash, nizo kelib chiqish xavfi bo'lgan oilalar bilan viktimologik profilaktikani tashkil etish;
- 2) huquqbuzarlik yoki jinoyatlardan jabrlanishga moyilligi bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularning zo'ravonliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;
- 3) ma'muriy hududda g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan, jinoyatlar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish;
- 4) ijtimoiy mavqe'i, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog'liq holda jinoyatlardan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash;
- 5) jinoyatlarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;
- 6) notinch oilalarda yashayotgan shaxslarning zo'ravonliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida tushuntirish ishlarini olib borish;
- 7) oilada sodir etiladigan jinoyatlardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar toifalarini aniqlash;
- 8) jinoyatlardan jabrlanganlarning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda profilaktika tadbirlarni ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

16. Мирзиев Ш.М. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Президент Фармони – 2021

17. Шавкат Мирзиёев. «Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови ». Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган танталали маросимдаги маърузаси./ Халқ сўзи. - 2016. -№ 243(6678) Б. 1-3

18. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т., «Ўзбекистон», 2016. – 56 б. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.– Т.,«Ўзбекистон»,2017.–48 б.

19. 2022 йил 28 январда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

20. Атажанов Ў. М. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР //World scientific research journal. – 2023. – Т. 12. – №. 2. – С. 81-89.

21. Атажанов Ў. Шаҳар ҳудудида жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича профилактика инспектори фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишнинг бугунги ҳолати ва ўзига хос хусусиятлари //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 24-30.

22. Майор А. Ў. М. ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ МАХАЛЛА ФУҚАРОЛАР ЙИГИНЛАРИДАГИ ҲИСОБОТ БЕРИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 117-121.

23. Адхамов, Зафар. "ҚАДИМГИ ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЛГАРИ СУДЛАНГАН ШАХСЛАР ЎРТАСИДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ПРОФИЛАКТИКАГА ОИД ЁНДАШУВЛАР." Академические исследования в современной науке 4.13 (2025): 189-193.

24. Қадамович Б. Ҳ. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ТАРБИЯСИ ОҒИР БЎЛГАН ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЕТИШ БЎЙИЧА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 4. – №. 4-1. – С. 95-100.

25. Ганиев Ф. Т., Давлетов Ф. О. У. РАБОТА ИНСПЕКТОРА ПРОФИЛАКТИКИ С БЕЗНАДЗОРНЫМИ И БЕСПРИЗОРНЫМИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПРОБЕЛЫ НА ПРАКТИКЕ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 16. – С. 179-182.

26. Адхамов, Зафар Акбарович. "ШАХСЛАРНИ ЗЎРАВОНЛИК ХУЛҚ-АТВОРИНИ ЎЗГАРТИРИШ БЎЙИЧА ТУЗАТИШ ДАСТУРИДАН ЎТКАЗИШДА ДИНИЙ УЛАМОЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ АҲАМИЯТЛИ ЖИҲАТЛАРИ." THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY 2.20 (2024): 114-117.

27. Адхамов, З. А. (2025). ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ НАЗОРАТ-ЛИЦЕНЗИЯ ҚОИДАЛАРИГА РИОЯ ЭТИЛИШНИ ТАЪМИНЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(2-2), 165-172.

28. Мустофақулов Б. А. Ў., Шодмонов Д. Э. Ў. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ПАТРУЛ-ПОСТ ХИЗМАТИ ВА ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ БЎЛИНМАЛАРИ БИЛАН ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 47-51.

29. Ниматов Ш. Н. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳозирги кундаги долзарб масала сифатида //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 136-140.

30. Ниматов Ш. Н. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳозирги кундаги долзарб масала сифатида //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 136-140.